

x x x x



JASSH


JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY AND SCIENTIFIC HORIZON



IMPACT FACTOR: 9.9

ISSN: 3060-5261

Indexes:



x
x
x
x





**Journal of Analytical Synergy and Scientific
Horizon ISSN: 3060-5261 Impact faktor: 9.9
Volume 1, Issue 5, Series B 2025**

**"JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY AND
SCIENTIFIC HORIZON" SCIENTIFIC-METHODICAL
JOURNAL**

10.07.2025

In this collection, the articles accepted for the " **journal of analytical synergy and scientific horizon**", Volume-1, Issue-5, 2025, are published.

DOI number was attached to all articles in the journal and indexed in the international scientific bases of **Google Scholar, ResearchGate, ISSN, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Advanced Science Index, J-Base, Cite Factor, International Scientific Indexing, Euarasian Scientific Journal Index, General Impact Factor, Internet Archive, Scientific Journal Impact Factor, EuroPub, COPE, General Impact Factor, Slib.uz.**

Dissertations are officially recognized as articles published in national journals on the list of journals recommended to publish the main scientific results of dissertations by OAK.

Basis: Page 3 of the list of scientific publications recommended to publish the main scientific results of dissertations of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent: 2019. - 160 p

The materials of the magazine can be used by professors, teachers, independent researchers, doctoral students, masters, students, lyceum colleges and school teachers, scientific workers and all those interested in science.

Reminder! The authors are personally responsible for the correctness of the numbers, reports, data and the correctness of the quotations in the scientific articles included in the collection of journal materials.



**"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION
HOUSE" LLC**



**Journal of Analytical Synergy and Scientific
Horizon ISSN: 3060-5261 Impact faktor: 9.9
Volume 1, Issue 5, Series B 2025**

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Sevara Jabborova Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining magistranti

Mas'ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

EDITORIAL TEAM

1. Editor of Historical sciences, **Kholiyarov. Ch, Tulkinjon** - Head of the "Social and Humanities" Department of the Termiz Institute of Engineering and Technology, doctor of philosophy in Historical science. E-mail: txoliyarov@mail.ru
2. Editor of Philology Sciences, **Allamberganova. A. Guljakhan** - Karakalpak State University, Doctor of Philosophy in Philology, Docent of Karakalpak language.
3. Editor of Pedagogical sciences, **Feruza. B. Muzafarova** - Bukhara State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical science, Docent in theory and methodology of physical education and sports training
4. Editor of Philology sciences **Mariya D. Bekberganova** - Karakalpak State University, doctor of philosophy in Philology science(PhD)
5. Editor of Philological sciences **Zulfiya K. Ktaybekova** - Karakalpak State University, doctor of philosophy in Philology science(PhD)
6. Editor of pedagogical sciences **Eshkoraev Kahramon**- Chirchik state pedagogical University Doctor of Philosophy in pedagogical science, Termez, Uzbekistan e-mail: eshqorayev1987@mail.ru
7. Editor of technical sciences **Rakhmankulov E. Jasur**-Tashkent scientific Research Institute of Innovative Chemical Technology Doctor of Philosophy in technical science. e-mail: jasurer87gmail.com
8. Editor of the Department of Agricultural Sciences **Jurakhon N. Nadzhiev** - Advisor to the Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative Development, Doctor of Agricultural Sciences DSc.
9. Editor of the Department of Agricultural Sciences **Dilshod T. Jumanov** - Advisor to the Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative Development, Candidate of Agricultural Sciences.



10. Editor-in-chief, **Eshkaraev Sadridin Chorievich** - associate professor of the Department of Analytical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy Chemical Science, Termez, Uzbekistan. esadir_74@rambler.ru
11. Editor of medical sciences **Ye Fan Wang Glavin**, Case Western Reserve University, United States / Chinese Academy of Medical Sciences, Peking Union Medical College, China
12. Editor-of technical science, **Eshkaraev Ulugbek Chorievich** - Associate Professor of the Department of Primary Education Methodology of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Candidate of Technical Sciences, Denau, Uzbekistan.
13. Editor of medical sciences **Carolyn Steele Gray**, Canada Research Chair in Implementing Digital Health Innovation (Tier 2), Canada.
14. Editor of chemical sciences **Mirabbos Hojamberdiev Ikromovich**- associate professor of the Technische Universität Berlin, doctor of chemical science, Berlin, Germany
15. Editor of Sociology science **Eryigitova Lobar Qodirovna** Head of the Department of Social Sciences and Physical Culture of CAMU International Medical University
16. Editor filological sciences **Jurayeva Ramziya Abdurahimovna** Kokand State Pedagogical Institute. Kokand, Uzbekistan Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), senior teacher.
17. Editor of Humanitarian science **Rakhmonov Abdukahhor Abdusattorovich**
Vice-Director for Spiritual Education and Youth Affairs, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences
18. Editor of technical sciences **Hasan Soyibnazarovich Beknazarov** Leading researcher of the Tashkent Research Institute of Chemical Technology, doctor of technical sciences, professor.
19. Editor of medical sciences **Vahidov Alisher Shavkatovich** Termez branch of Tashkent Medical Academy General surgery, children head of the department of surgery and pediatric urology Doctor of medical sciences, professor
20. Editor of biological and physics sciences **Urmanova Gulbaxor Urunbayevna** - associate Professor of Tashkent State Medical University, Uzbekistan.



ABDULLA QAHHOR HIKOYALARI TAHLILI

Hamroyeva Sabina Ismoil qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Menejment fakulteti MO-58 guruh talabasi

sabinahamroyeva936@gmail.com +998993774999

Rahbar: Muxlisa Sadriddinovna Muhitdinova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“O‘zbek va rus tillari” kafedrasi dotsenti.v.b

Annotatsiya: Ma'lumki ,har bir davrda ijtimoiy hayot muammolari dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan.O‘tmish saboqlaridan bizga ayonki,taqdirning shafqatsiz hukmi qora xalqni shunchaki chetlab o‘tmagan.Abdulla Qahhor mana shunday,davr muammolarini,o‘zbek xalqining xx- asr boshlarida kechirgan qora kunlarini o‘zining hikoyalarida real badiiy tasvirlar bilan jonli tasvirlab bergan ijodkordir.Ushbu maqolada buyuk qalam sohibi,hikoyanavis Abdulla Qahorning hikoyalari tahlilida ijtimoiy davr muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bemor, hikoyanavis, dahshat, jamiyat, ijtimoiy davr, qashshoqlik, dramatism, savodsizlik.

Аннотация: известно ,что проблемы общественной жизни в каждый период являлись одной из актуальных проблем.Из уроков прошлого нам становится ясно,что жестокий приговор судьбы не просто обошел стороной черный народ.Абдулла Кахор - таков творец,живо изобразивший в своих рассказах проблемы эпохи,темные дни, которые пережил узбекский народ в начале xx века, реалистическими художественными образами.В этой статье рассматриваются проблемы социальной эпохи в анализе историй великого пера,рассказанависа Абдуллы каххора.



Ключевые слова: пациент, рассказчик, ужас, общество, социальная эпоха, бедность, драма, неграмотность.

Abstract: it is known that the problem of everyday life in each period was one of the traces of an actual problem. It is clear from the lessons of the wet village's past that the harsh verdict of the court did not just bypass the black people. Abdullah Kahor is such a creator who vividly portrayed in his stories the problem of the era, the dark days that the Uzbek people experienced at the beginning of the 20th century, with realistic and artistic images. This article examines the problem of the social epoch in the analysis of the history of the great pen, narrated by Abdullah Kahhor.

Keywords: patient, narrator, horror, society, social epoch, poverty, drama, illiteracy.

Abdulla Qahhor – hajviy hikoyalar ustasi. U hajviy va yumoristik hikoyalarida qahramonlar xarakteri, dunyoqarashi, fe'l-atvoridagi ijtimoiy illat sifatida bartaraf etilishi zarur bo'lgan kamchiliklarni, ba'zan yengil-yelpi tuzatish bo'lgan xato va yetishmovchiliklarni ko'rsatadi. **“O'jar”** hikoyasida mashhur o'zbek artisti Mirshohid Mirqobilovning uyida bo'lib o'tgan voqeani tasvirlaganman. Voqeaning ishtirokchilari Mirshohid, uning o'n ikki yoshlar chamasidagi o'g'li va o'zim. Sirasini aytganda, voqea hikoyaning zamirida bo'lgan ma'noga ega emas edi. Kuldirishga g'oyatda mohir bo'lgan Mirshohid hikoyada ko'rsatilganidek masxara darajasida “nodon”lik qilgani yo'q, shu rolni “o'ynagan”, shu bilan mening xayolimni o'sha vaqtda band qilib yurgan mavzuga shakl topib bergan edi”, - deb hikoya tarixi bilan kitobxonni tanishtirib o'tadi¹ Adibning “O'jar” hikoyasi yozuvchining badiiy mahorati va hayotni chuqur tahlil qilish qobiliyatini

¹ 1. A. Qahhor. Asror bobo va O'jar (hikoya). – T., Adabiyot uchqunlari, 2018



ko'rsatadigan asarlaridan biridir. Hikoya o'zbek xalqining xarakteriga xos jihatlar, inson ruhiyatining murakkabligi va oddiy hayotning qiziqarli tasvirlari bilan boyitilgan. Undagi so'z qo'llash mahorati, ya'ni kam so'z qo'llab, olam-olam ma'no-mazmun bilan boyitilganligini ko'rishimiz mumkin. Hikoyadagi qahramonlar o'jar keksalarning hayotga bo'lgan qarashlari va o'ziga xos xarakterlari jonli tasvirlangan. Ularning har biri o'ziga xos va o'zbek xalqining ma'naviy dunyosini aks ettiradi. Asarning bosh qahramonlari Qutbiddinov va Zargarovlar ham bir-birlariga yon qo'shni, ham dilkash oshna bo'lishadi. Hikoyani tahlil qilar ekanmiz, ularning o'zaro muloqot jarayonida evfemizlarning hikoya qahramonlarini fikrlash doirasini, ularning munosabatlarini ifodalaydi. Asarda ikki ulfatchi yig'ilgan vaqtida har doim ikki mavzudan chetga chiqmasligi: biri – shu ketishda shahrimiz yana ellik yildan keyin qanday bo'lar ekan; ikkinchisi – so'nggi vaqtlarda fan kishilarni yoshartirish to'g'risida nega indamay qo'ydi?

Bu safargi o'tirishida ular “Bola tarbiyasi” mavzusida juda ham qizg'in suhbat olib boradi. Asardagi har yomonning bir “ammo”si bo'lishi kerak, har yaxshining bir “lekin”i birikmasini maishiy evfemizmlar turiga kiritishimiz mumkin. Bu gap orqali yozuvchi inson har doim mukammal bo'la olmasligini, har bir yomon insonning ham qandaydir yaxshi tomoni borligini, yaxshining esa yomon tomoni mavjudligini kitobxonga uqtirmoqchi bo'ladi. “O'jar” hikoyasi inson va jamiyat munosabatlaridagi ziddiyatlarni ko'rsatadi.

Asardagi evfemizmlarni tahlil qilar ekanmiz, aroqqa nisbatan oq ichmoq so'zini ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari, asarda shaxmat o'ynash to'g'risida juda ham qizg'in bahs bo'lib o'tadi. Shaxmatning ijobiy va zararli tomonlarini ikki oshna birbirlariga tushuntiradi. Bu orqali yozuvchi qahramonlarning hayoti va turmush tarzini ham ifodalab o'tadi. Ularning ichki kechinmalari, o'z fikrlarida qat'iylik qilishi, boshqalarning maslahatlariga quloq



solmaslik kabi jihatlari ochib beriladi. Asarda shaxmat o‘ynash natijasida miyaning suyilib qolishi kabi evfemik birikmadan bilishimiz mumkinki, Qutbiddinov va Zargarov shaxmat haqida yetarlicha ma’lumotga ega emas. Ular o‘zlaring mulohazalari bilan bolalarining shaxmat o‘ynashiga yo‘l qo‘ymaydi. Hikoyada ijtimoiy ziddiyatlar, xususan, avlodlar o‘rtasidagi tafovutlar va munosabatlar bevosita aytilmasdan, evfemistik ifodalar orqali tasvirlangan. Masalan, “Zamon o‘zgardi” yoki “Hozirgi yoshlar boshqacha” kabi iboralar jamiyatdagi o‘zgarishlarni yumshoqroq va kinoyali tarzda aks ettiradi. Bu yozuvchining ijtimoiy masalalarni mulohazali va estetik tarzda ifodalash mahoratini ko‘rsatadi. Keksa va yosh avlod o‘rtasidagi munosabatlar hikoyada bevosita tanqid qilinmasdan, evfemizmlar orqali tasvirlangan. Masalan, “Bizning paytimizda bunday emas edi” iborasi avlodlar o‘rtasidagi, qarashlardagi farqni ko‘rsatadi, lekin bu ayblash sifatida emas, balki yumshoq bir xotira sifatida berilgan.

Hikoyadan o‘rin olgan yana bir evfemik ma’no moliya tili so‘zi orqali adib daromad hosil qilish va uni sarflashda ishlatiladigan pulni kinoyaviy tarzda emas, balki yumshoqroq holda ifodalashga harakat qilgan. Evfemizmlarni tahlil qilar ekanmiz, asarda maktablarga nisbatan tarbiya o‘choqlari birikmasining ishlatilishi orqali yozuvchi asar qahramonlarining kinoyali tarzida ifodalaydigan fikrini yumshoq tarzda ochib bergan. “O‘jar” hikoyasi inson va jamiyat munosabatlaridagi ziddiyatlarni ko‘rsatadi. Hikoya orqali yozuvchi inson tabiatidagi o‘jarlik, o‘z fikridan qaytmaslikning jamiyatdagi o‘rni va uning salbiy oqibatlarini badiiy tahlil qiladi. “O‘jar” hikoyasida evfemizmlar hikoyaning badiiy kuchini oshirish bilan birga qahramonlarning ichki dunyosini chuqurroq ochishga yordam beradi. Yozuvchi evfemistik iboralar orqali murakkab ijtimoiy va insoniy muammolarni yumshoq, xalqona va hazilomuz tarzda ifodalab, kitobxonni asarni tahlil qilishga va



mulohaza yuritishga chorlaydi. Bu evfemizmlar hikoyaga tabiiylik va hayotiylik baxsh etadi.



**1-rasm: Abdulla Qahhor
“O’jar” hikoyasi²**

A.Qahhor hikoyalarini shunchaki yozmaydi, balki jamiyatda bo’layotgan nohaqliklar, odamlar o’rtasidagi adolatsizliklar kuchli satira ostida yoritiladi va buning yechimi kitobxon ixtiyoriga topshiriladi. Bundan tashqari, adib epigraflardan ham mohirona foydalanadi. Bu orqali kitobxon asar mazmunini darrov anglab oladi. Aynan biz tahlil qilmoqchi bo’lgan “Anor”

hikoyasi uchun qo’llangan epigrafni olaylik:

“Uylar to’la non, och-nahorim bolam, Ariqlar to’la suv, tashnai zorim, bolam”. Ya’ni uylarda non bor, lekin och, ariqlar suvga to’lib yotganda, suvga tashna bo’lgan bolam, deyapti. Asar urush payti yozilgani uchun, sobiq sovet tuzumidan qiynalgan xalq tasvirlangan. Uylarda non, ariqlarda suv bo’lsada, lekin tinchlik bo’lmasa, demak bu xalqning qorni och deya tahlil qilishimiz mumkin.

Asar tahliliga keladigan bo’lsak, birinchi navbatda A. Qahhor “Anor” hikoyasi uchun nega bu epigrafni tanladi? Yuqorida aytib o’tganimizdek urush tufayli yuzaga kelgan ochlik, kambag’allik, nochorlik sabab o’g’rilikka qo’l urgan kishi obrazini gavidalantirish uchun, albatta. Asarda voqealar rivoji Turobjonning xotini anorga boshqorong’i bo’lishidan boshlanadi. O’sha davrdagi ijtimoiy holat, ocharchilik,

² Muallif tomonidan yaratilgan




nochorlik, kambag'allik sabab Turobjon ayoliga bir dona anorni olib kela olmaganligi, keyin esa o'g'irlik qilishga majbur bo'lishini adab kuchli satira ostida ifodalab beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, asarda eng yomon, katta illatlardan-kambag'allik, nochorlik, hamda ijtimoiy tengsizlik kabi dolzarb mavzular yoritilgan. Asardagi quyidagi parchani olaylik: - **Axir, boshqorong'i bo'l, evida bolda!** -dedi do'ppisini qoqmasdan boshiga kiyib, -**anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo'lsa! Saharmardondan suv tashib, o'tin yorib, o't yoqib bir oyda oladiganim o'n sakkiz tanga pul. Akam bo'lmasa, ukam bo'lmasa...** Ushbu parchada Turobjonning holati, ijtimoiy ahvoli qay darajada ekanligini hech qanday ta'riflarsiz fahmlab olish mumkin. Endi boshqa bir parchaga e'tiborimizni qarataylik: - **Umringda necha marta asal yegansan? O'zim umrimda bir marta yeganman: Shokir qandolatchi asal qiyom qil dirayotganda qozoniga ammanning jo'jasi tushib ketgandi, shu jo'jani yalaganman...** Bu parchada Turobjon anor o'rniga asal olib keladi, lekin asalni ham o'zini puliga olmaydi. Xo'jayiniga sovg'a qilingan asaldan ozrog'ini so'rab oladi. Adib bu parcha orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklarni ochib beradi. Ya'ni ba'zi bir mansabdor shaxslar o'z foydalari uchun oddiy xalqdan foydalanadi. Natijada davlat tepasida turgan mansabdor shaxslarning qorni to'q, oddiy xalq och qolib ketavergan. Abdulla Qahhor bu asariga "Anor" nomini tanlar ekan, o'sha davr tuzumi, ocharchilik, nochorlik holatlaridan kelib chiqqan holda anor mevasini tansiq meva sifatida ko'rishimiz mumkin. O'sha davrda odamlar bir burda nonga zor bo'lsa, anor ular uchun shunchaki orzu edi. Buni quyidagi parchadan bilib olishimiz mumkin: - Mushak, - dedi Turobjon, - Mullajon qozining bog'ida. Mullajon qozi beshik to'yi qilgan. Xotin indamadi. - Shahardan to'ralar hamchiqqan, - dedi Turobjon yana. Xotin yana indamadi. U mullajon qozining bog'ini ko'rgan emas, ammo ta'rifini eshitgan. Bu bog'ni ko'z oldiga keltirib ko'rdi: bog' emas, anorzor ...



2-rasm: Abdulla Qahhor “Anor” hikoyasi³

A.Qahorning “Dahshat” hikoyasiga to‘xtalsak, bu asar o‘sha davrdagi xalq hayoti va ayollarning ruhiy holatlari tasvirlangan. Voqealar jarayoni Olimbek dodxoning uyi va qabristonda bo‘lib o‘tadi. Hikoyaning boshlanishi Olimbek dodxoning uyidagi sakkiz xotini va atrofda ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli bilan boshlanadi. Bu parchaning boshlanishida Dodxoning tasbehni o‘girayotgani tasvirlangan.



3-rasm: Abdulla Qahhor “Dahshat” hikoyasi⁴

Tasbeh Dodxo uchun ko‘ngilni tinchlantiradigan, xotirjamlik beradigan narsa hisoblanadi. Ammo shunga qaramay, uning xayoli go‘ristonda va qo‘rquvini kuchaytiruvchi vahimali fikrlarda edi. Go‘ristonning “vahimali” va “xunuk” sifatlarida ishlatilishi Dodxo qalbini bezovta qilayotgan, o‘limni va u bilan bog‘liq qo‘rquvni ta‘kidlaydi. Voqealar davomida eshikka nimadir keilib uriladi va bo‘yra bo‘lib chiqadi. “Gapdan gap chiqib Nodirmohbegim bir voqeani aytib berdi.

³ Muallif tomonidan tayyorlangan

⁴ Muallif tomonidan tayyorlangan



Bola edim. Rahmatli dadam gap yer edilar. Bir mehmonxona yigit... Mana

shunaqa

shamol kechasi

ekan. «**Hozir kim go‘ristonga**

borib, Asqar ponsotning

go‘riga pichoq sanchib

keladi?» - degan gap bo‘lipti.

Shunda bir kishi pichog‘ini

qinidan sug‘urib: «**Men**

sanchib kelaman», -deпти.

Bitta qo‘ydan garov bog‘lashib

yo‘lga tushipti. Jo‘ralari hali

kutishar emish - yo‘q, hali

kutishar emish -yo‘q; tong

otipti, uyida ham yo‘q emish; go‘ristonga borib qarashsa, Asqar ponsotning go‘ri


oldida o‘lib yotgan emish! Bechora go‘rga pichoq sanchganida etagini qo‘shib

sanchgan ekan, qaytay desa etagidan birov tortganday bo‘lgan-da...”

Nodirmohbeginning aytib bergan voqeasi inson ruhiyatidagi qo‘rquv va o‘zo‘zini ruhiy jihatdan yengish qiyinligini ko‘rsatadi. Bu voqea xalq og‘zaki ijodidan kelib chiqqan, mistik va qo‘rqinchli hikoyalarga o‘xshaydi. Bu kabi hikoyalar o‘quvchiga hayajon va vahima hissini uyg‘otadi.

Shuningdek, bunday voqealar jamiyatdagi odatlarni, xalqning ruhiy dunyosini aks ettiradi. A.Qahhor ushbu tasvir orqali o‘z asarida xalqning axloqiy va ruhiy dunyosiga chuqur kirib borishga muvaffaq bo‘lgan.

Ushbu voqeadan keyin bosh qahromomlar o‘zaro bahs bog‘lashadi. Natijada Unsin qabiristonga borib qumg‘onda choy damlab kelish sharti berildi. Unsin bu





bahsdan qo'rqmadi, chunki ota-onasini oldiga, ya'ni Ganjiravonga ketish umidi bor edi. Uni birgina so'z olg'a yurishga yordam berdi :
“O'likning joni yo'q!”.

“Go'riston to'g'risida dodxo nimalar eshitgan bo'lsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol kechasi dodxo xayolida go'riston qandoq dahshatli bo'lsa, uning xayolida ham shunday dahshatli, lekin shundoq bo'lsa ham, tiriklar go'ristoni bo'lgan bu dargohning dahshati oldida o'liklar go'ristonining dahshati unga dahshat ko'rinmas, bundan tashqari, ertagayoq Ganjiravonga jo'nash, ota-onasini, dugonalarini ko'rish umidi uning boshiga hech qanday fikr-xayolni yo'latmas edi”

Yuqoridagi satirda dahshat so'zi besh marta takrorlanga. Unsin go'ristonning bu dahshatli tasvirini qabul qilmaydi, uning uchun tiriklar dunyosidagi muammolar ko'proq ahamiyatli. U go'ristonning o'limdan ham kuchliroq ramzini tiriklar go'ristoni, ya'ni o'zining hayoti bilan bog'laydi. O'limga emas, hayotga bo'lgan mehr - Unsinning yaqin kelajakda ota-onasi va dugonalarini bilan ko'rishish istagi uning boshini o'lim haqida xayollardan chalg'itadi va umid bilan to'ldiradi.

Shu davrda ayollarga bo'lgan munosabat yomon munosabatda bolishgan, shuning uchun Unsin hato o'lishini bila turib, katta tavakalga qo'l chozdi. Budunyodan ozod bo'lib oldi. Unsindan keyin Olimbek dodxonning katta xotini Nodirmohbegim ikkala mushtini uch marta yerga qadadi; keyin: «**Bu dargohni endi yelkanning chuquri ko'rsin**», deb chiqib ketdi.



4-rasm: Abdulla Qahhor “Bemor” hikoyasi


Qisqa soʻzda koʻp maʼno ifodalash mahoratiga ega boʻlgan hikoyanavisimizning oʻzi yashab oʻtgan davr bilan bogʻliq turli mavzulardagi

ijtimoiy va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyat kasb etuvchi hikoyalaridan biri bu- “**Bemor**”⁵ hikoyasi. Hikoya kichik hajmli va ixchamgina boʻlishiga qaramasdan unda butun bir davrning ogʻir va zalvorli muhiti tasvirlangan.

Dastlab, asar yozilgan yilga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, hikoya 1936-yilda yozilgan. Ushbu yilda Oʻzbekiston sobiq SSSR davlatining mustamlakachilik botqogʻiga botib

boʻlgan edi. Mamlakatimiz har sohada izdan chiqqan, nafaqat tibbiyot, taʼlim, balki iqtisodiy tomondan oʻsish ham toʻxtab qolgan edi. Insonlar och-nahor, bir burda nonga zor boʻlib bir chekkada xor-u zorlik tortib oʻlib ketishar, biror kasb bilan shugʻullanay desa, hech bir kasb orqali oila roʻzgʻorini tebrata olmasdi. Shu sababli ham insonlar pul topish ilinjida oʻgʻrilik, firibgarlik kabi illatlarni oʻzlariga kasb qilib olgan edi.

“ Sotiboldining xotini ogʻrib qoldi. Sotiboldi kasalni oʻqitdi - boʻlmadi, tabibga koʻrsatdi. Tabib qon oldi. Betobning koʻzi tinib, boshi aylanadigan boʻlib qoldi. Baxshi oʻqidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi,





tovuq so'yib qonladi...". Ushbu parchada bir amallab **"tabib"** nomini olgan kimsa, yuqorida aytilgandek, ayolning nima kasal bilan og'riyotganini bilmay turib undan qon oldi. Buning oqibatida esa betobning **"ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib"** qoladi.

Hatto o'zi ham kim ekanligini bilmaydigan allaqanday bir xotin kelib uni savalaydi. Ulardan so'ng xonadonga baxshi keladi.

U xotinning yonida o'tirib bir narsalar o'qiydi, lekin u o'qigan narsalar bemorning dardiga em bo'ladimi - yo'qmi, uni zarracha bo'lsa ham qiziqirmaydi. Axir ochlik azobidan qiynalib, og'ir ahvolda yotgan bemordan ham qon oladimi, mushtdekkina joni shunday azobli dardni zo'rg'a ko'tarib yurgan bir bechorani ham xipchin bilan savalaydimi? Bu soxta "tabiblar"ga bemorning o'lishi-yu qolishining qizig'i yo'q, ular faqat pul uchun shunday razilliklarga qo'l urgan edi.

Holbuki, ular bunday **"davolash usuli"**ni birgina Sotiboldining xotini emas, balki o'sha atrofdagi yuzlab bechoralar ustida qo'llaydi. Baxshi esa qayerga chaqirilsa, qaysi kasalga ro'para kelsa, hammasiga ko'r-ko'rona yodlab olgan narsalarini o'qib, chiqib ketavergan. Ko'ryapsizki, mana shunday majruh davr muhiti butun jamiyatni, kishilar ong-u shuurini johillik bilan butunlay band qilib olgan.

"Shaharda bitta doktorxona bor....Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi". Endi hikoyaning mana shu joyiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'z - o'zidan bir savol tug'iladi. Nega butun boshli katta shaharda birgina kasalxona faoliyat yuritadi? Yuqorida aytib o'tilgandek bu davr 20- asrning dastlabki yillari bo'lib, Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan o'lkada tibbiyot masalalarini hal qilishga deyarli e'tibor berilmas edi, chunki xalq moliyaviy jihatdan juda qashshoq bo'lib, qishloqlardagi dehqonlar, shaharlardagi hunarmandlarning kuni bo'yi og'ir mehnat qilib topgan va yig'gan boyliklari chetga tashib ketilardi. Shuning uchun ham



iqtisodiy nochorlik kishilar turmush darajasining tobora pasayib borishiga, aholi o`rtasida turli kasalliklar keng tarqalib, oddiy betoblik ortidan odamlar bevaqt hayotdan ko`z yumib ketishiga sabab bo`ldi.

Har davrda bo`lgani kabi aynan mana shu yillarda ham aholi o`rtasida tabaqalanish keng avj olib, tibbiy xizmatdan faqatgina chor amaldorlar, harbiylar va mahalliy boylargina foydalana olar edi. Bunday sharoitda esa Sotiboldiga o`xshagan oddiy xalqning nochor odamlari kasalxonaga borib shifo topishni emas, balki doktorxona uchun 25 so`mlik pul topish ilinjida yurar edi. Shunday paytda Sotiboldining birgina najoti xo`jayini - Abdug`aniboy edi. Lekin afsuski, kambag`alni tuyani ustida ham it qopadi deganlaridek bu inson ham Sotiboldiga yordam qo`lini cho`zishdan bosh tortadi. Omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o`ladigan ahvolga kelgan vaqtda shahardagi kasalxonani ham nazariga ilmay markaziy shaharga, ya`ni Simga borib davolanib kelishga pul topgan bu bag`ritosh kimsa xizmatkorining ayoli yosh o`lib ketishi, norasida bir farzand yetim qolib ona mehriga zor bo`lib o`sishi mumkinligini bila turib zarracha yordam ko`rsatishga yaramaydi. Axir Abdug`aniboyga o`xshagan razil va xasis kimsalarni boy qilgan, ularning o`zlari xohlagandek maishat qilishi, betob bo`lganda istagan joylariga borib davolanib kelishi uchun yetarlicha mablag` bilan ta`minlagan Sotiboldi va unga o`xshaganlarning og`ir va mashaqqatli mehnati emasmidi? Nahotki shu bir qiymatga arzimaydigan pul inson hayotidan azizroq bo`lsa?.

E`tibor berib qaraydigan bo`lsak, o`sha davrda butun boshli jamiyat bor, bitta bo`lsa ham doktorxona bor, tabib bor, baxshi bor, qo`lida harom pullar o`ynagan boylar va amaldorlar bor, qanday mehnat bo`lsa qilishga tayyor bo`lgan Sotiboldi bor, lekin bularning hech birida bemor uchun najot yo`q. Hikoya davomida na Sotiboldining, na ayolining qarindosh - urug`lari, qo`ni - qo`shnilari haqida so`z yuritiladi.



Bu qarindosh yoki qo`shnilarning yo`qligidan emas, balki yordam beruvchilarning yo`qligidan dalolatdir. Chunki bunday og`ir zamonda birovning birov bilan ishi yo`q, qarindoshlar narida tursin hatto farzand otasini tanimaydigan darajada hamma o`z kunini qanday kechirshni o`ylardi. Shu boisdan ham qashshoqlikning botqog`iga botib qolgan shunday ayanchli nochor muhitda tashqaridan boshqalarning ovozi emas, balki gadoning sadaqa so`rab baqirgan tovushi eshitiladi. Hikoyaning mazmun - mohiyati, ta`sir kuchi hali bu bilan ham tugamaydi.

O`limi yaqinlashib qolgan ayoli uchun biror najot topa olmagan Sotiboldi qo`shi kampirning maslahati bilan endi to`rt yashar qizchasining saharlab turib uyqusiragan holda qiladigan duosiga umidvor bo`ladi. Bemorning “ko`ngliga armon bo`lmasin deb” chilyosin o`qitishadi. So`nggi damda qilinayotgan ishlarning barchasi bemorning o`lib qolmasligi uchun edi. Chunki o`lgan kishini so`nggi yo`lgan kuzatish uchun ham qanchadan qancha urf-odatlarini o`z o`rniga qo`yib o`tkazish talab etiladi. Bularning barchasi esa pul evaziga bo`ladigan ishlar edi. Yozuvchi aynan mana shu pul davr kishilarini imkoniyatlardan mahrum etish bilan bir qatorda insondagi eng muqaddas tuyg`ular-insoniylik, rahmshavqat, insof, imon kabi tuyg`ulardan ham bir yo`la ayirayotganini yoritib bergan.

Asardagi qahramonlar ruhiyatiga to`xtaladigan bo`lsak, hikoyaning bosh qahramoni Sotiboldini kambag`alligi va chorasizligi tufayli asarning boshidan yakunigacha juda tushkun ahvolda ko`ramiz. Og`ir kasallikdan aziyat chekayotgan ayolining holatini ilojsiz kuzatayotganligi, uni tuzatish uchun qo`lida bor imkoniyatidan foydalansa-da umr yo`ldoshini bu azoblardan qutqarishga ojiz qolganligi sababli ham bu obrazni o`sha davrdagi imkoniyatlari cheklangan, o`z haqqini talab qila olmaydigan, nochorlikning changalida ezilayotgan insonlarning tipik vakili deya olishimiz mumkin.



Hikoyadagi yana bir obraz - Abdug`aniboy orqali insoniylikni bir chetga surib qo`yib oddiy insonlarga tepadan qaraydigan, odamgarchilik, rahm, insof kabi insoniy xislatlarni bir pulga sotadigan ma`naviy qashshoq kimsa sifatida tasvirlangan.

Bundan tashqari asardagi “tabib”, baxshi, bemorni xipchin bilan savalagan ayol kabi obrazlar pul uchun hech narsadan tap tortmaydigan, tuban va razil kimsalarning umumlashma variantidir.

Bir so`z bilan aytganda hikoyada insonni qashshoqlik emas, loqaydlik, ilmsizlik, ma`naviy tubanlik kabi illatlar halokatga yetaklashi qisqa va sarmazmun gaplar bilan isbotlab berilgan. Asar muallifi bu hikoya orqali umidsizlik yoki tushkunlikni targ`ib etmaydi, aksincha, u inson ruhiyatining kuchi va chidamliligini, shu bilan birga, qiyinchiliklarga duch kelganda shaxslarning maqsad va chora yo`lini topish qobiliyati qay darajada yuksalishi mumkinligini namoyish etadi. Abdulla Qahhorning mushohadali hayot haqiqatlarini o`zining kichik jussasida mujassam qilgan bu qisqa hikoyasi bugungi kunda ham o`z salmog`i va o`rnini yo`qotmay kelayotganining asosiy sabablaridan biri shuki, undan olinadigan xulasa hozirda ham bir qancha insoniy tuyg`ulardan yiroqlashib borayotgan yangi davr kishilari uchun ibrat vazifasini o`tayotganligidir.

Xulosa qilib aytganda, o`zbekning atoqli va zabardast yozuvchisi o`tkir qalam sohibi Abdulla Qahhor davr bilan hamnafas yashadi. Ijodkor o`z manfaatlari yo`lida qalam tebratmadi, u xalq dardi bilan birga yashadi. Qahhor hikoyalarida g`aflat uyqusida yotgan, o`zligini tanib ulgurmagan o`zbek xalqiga murojaat qildi. Davrining dolzarb muammolarini real tasvirlar orqali ba`zida kulgili satira ba`zida achchiq dramatism bilan fosh qilib, kitobxonlar qalbiga kirib bordi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Qahhor .Asarlar.Besh jildlik.Birinchi jild ."G'afur G'ulom nomidagi Adabiyotva sa'nat nashriyoti" Toshkent 1987
2. Marxabo Qo'chqorova Abdulla Qahhor - istiqloq adabiyotshunosligi ko'zgasida (monografiya) Toshkent : Akademnashr,2018
3. Marxabo Qo'shqorova " Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari" ."Muharrir "nashriyoti . Toshkent 2011 .Ozod Sharafiddinov asarlarida Abdulla Qahhor shaxsiyati 99-bet
4. Marxabo Qo'chqorova " O'tmishdan ertaklar tadqiqi" Yangi asr avlodi Toshkent. 2016
5. "Anor" qissa va hikoyalar to'plami. A.Qahhor. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent-2012
6. 6-sinf Adabiyot darsligi 1-qism (2017)- Toshkent, Ma'naviyat, 108-118-betlar.
7. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. - T.: „O'qituvchi“, 1999. - B.500.
8. Bahor Bahriddinovna Turaeva. (2021). THEORETICAL AND POETIC PECULIARITIES OF THE CHRONOTOPE IN THE NOVEL "THE PLACE OF THE SKULL" BY CH. AITMATOV. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt / Egyptology, 18(5), 84-103. Retrieved from <https://archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/7570>
9. Sobirov Anvar Kuvandikovich. (2019). Inversion as a stylistic instrument in poetic speech. Proceedings of The ICECRS, 3. <https://doi.org/10.21070/icecrs.v3i0.297>



ЁШЛАРДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Дадабоева Мадина

Қўқон университети

Бошланғич таълим йўналиши 2-курс талабаси

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистонда ёшларда экологик маданиятни шакллантиришнинг долзарблиги ва усуллари ёритилган. Унда инсон қадриятлари ва табиатни асрашнинг ўзаро боғлиқлиги, экологик тарбиянинг ёш авлодни камолга етказишдаги ўрни таҳлил қилинган. Шунингдек, оила, таълим ва маҳалла ҳамкорлиги, экологик тарбияда анъанавий қадриятлар роли ва замонавий технологиялар воситасида экологик онгни ривожлантириш йўллари кўриб чиқилган. Мақола экологик тарбияни миллий ва замонавий ёндашувлар асосида мустахкамлашни таклиф қилади.

Калит сўзлар: Экологик тарбия, экологик маданият, ёшлар, таълим, маҳалла, она табиат, технологиялар, экологик онг, Ўзбекистон, ижтимоий масъулият.

Аннотация: В данной статье освещаются актуальность и методы формирования экологической культуры молодежи в Узбекистане. В ней анализируется взаимосвязь человеческих ценностей и сохранения природы, роль экологического воспитания в воспитании подрастающего поколения. Также были рассмотрены семья, сотрудничество в области образования и соседства, роль традиционных ценностей в экологическом воспитании и пути развития экологического сознания с помощью современных технологий. В статье предлагается закрепить экологическое воспитание на основе национальных и современных подходов.



Ключевые слова: экологическое воспитание, экологическая культура, молодежь, образование, махалля, мать-природа, технологии, экологическое сознание, Узбекистан, социальная ответственность.

Abstract: This article highlights the relevance and methods of forming the ecological culture of youth in Uzbekistan. It analyzes the relationship between human values and nature conservation, the role of environmental education in the upbringing of the younger generation. They also discussed family, cooperation in the field of education and neighborhood, the role of traditional values in environmental education and ways to develop environmental awareness using modern technologies. The article proposes to consolidate environmental education based on national and modern approaches.

Keywords: environmental education, environmental culture, youth, education, mahalla, mother nature, technology, environmental awareness, Uzbekistan, social responsibility.

Юртимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлар марказида инсон қадри туради. Шу нуқтаи назардан табиатга эътиборли муносабат, уни асраш ва қадрлаш - инсоннинг маънавий камолотининг ажралмас қисмидир. Бугунги кунда глобал миқёсда кузатилаётган экологик инқироз - иқлим ўзгариши, атроф-муҳитнинг ифлосланиши, табиий ресурсларнинг камайиши ва биологик хилма-хилликнинг йўқолиб бориши каби омиллар ёшларнинг бу борадаги масъулиятини оширишни тақозо этмоқда.

Экологик тарбия бу - инсонни табиатга онгли ёндашишга, ресурслардан тежамкорлик билан фойдаланишга ва экологик қадриятларни ҳурмат қилишга ўргатадиган жараёндир. Бунда халқимизнинг анъанавий урф-одатлари, табиатга меҳр билан қарайдиган қадриятлари асос бўлиб хизмат қилади.



Айнан шунинг учун ёш авлод онгида экологик маданиятни шакллантириш долзарб ва кечиктириб бўлмайдиган вазифадир.

Экологик маданиятни шакллантиришда таълим, оила ва маҳалла ҳамкорлиги жуда муҳим. Экологик тарбия самарадорлиги таълим тизими, оила ва маҳалла ўртасидаги узвий ҳамкорлик орқали кучаяди. Экологик онгнинг шаклланиши аввало болаликда — мактабгача таълим муассасаларида бошланиб, олий таълимга қадар босқичма-босқич давом этиши зарур. Оддий ҳаётини кўникмалар - гул экиш, ҳайвонларга озор бермаслик, чиқиндиларни саралаб ташлаш каби ҳаракатлар болаларда экологик маданиятнинг илк асосларини шакллантиради.

Ёшлар орасида экологик маданиятни тарғиб қилишда қуйидаги усуллар энг самарали деб ҳисобланади:

- Экологик семинар ва тренинглари ташкил этиш;
- Экобоғлар барпо этиш ва ободонлаштириш ишларига жалб қилиш;
- Экологик мавзуларда танлов ва кўргазмалар ўтказиш;
- Спорт марафонлари, ҳашарларда иштирокни йўлга қўйиш;
- Экологик тўғараклар ва саёҳатлар ташкил қилиш;
- ОАВ ва интернетда экологик тарғиботни кучайтириш.

Экологик тарбия ёшлар қалбида Ватанга садоқат, ўз яшаш ҳудудига меҳр, она табиатга меҳр-муҳаббат туйғуларини шакллантиради. Бу жараён уларни масъулиятли, виждонли, яратувчан шахс сифатида вояга етказди. Шунингдек, ёшлар ўсимликлар ва ҳайвонларнинг табиатдаги ўрни ҳақида чуқур тушунчага эга бўлиб, уларни асраб-авайлаш зарурлигини англайди. Шу билан бирга, улар Ўзбекистоннинг табиий бойликлари ва уларни ҳимоя қилиш бўйича қонунчилик ҳақида зарур билимларни эгаллайди.



Бугунги рақамли асрда ижтимоий тармоқлар, блоглар, мобил иловалар ва онлайн курслар орқали экологик онгни ошириш жуда самарали воситага айланган. Давлат ва нодавлат ташкилотлари ёшлар орасида экологик хабардорликни ошириш учун интернет орқали видео, мақола ва визуал материаллар тарқатмоқда.

Замонавий технологиялар, хусусан сунъий интеллект, “ақли” мониторинг тизимлари, биотехнологиялар ва қайта ишлаш технологиялари экологик муаммоларни ҳал этишда муҳим рол ўйнайди. Ёшларнинг стартап лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш орқали бу йўналишда янги инноватсион ечимлар яратиш мумкин.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, ёш авлодда экологик маданиятни шакллантириш - нафақат мамлакат, балки бутун инсоният учун долзарб вазифадир. Бунда таълим ислоҳотлари, ОАВ фаолияти, қонунчиликни такомиллаштириш ва ёшларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш муҳим аҳамият касб этади. Экологик маданиятга эга ёшлар - бу келажак учун соғлом ва тоза экологик муҳитни таъминлайдиган асосий кучдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанқоғи. –Т.: “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2007.-Б.190
2. Salomova H.Yu. Ijtimoiy ekologiya asoslari. Toshkent: “Fan va Texnologiya” – 2004. - B.3
3. Фалсафа қомусий луғат. – Тошкент: “Шарқ”, 2004. – Б.416
4. Salomova H.Yu. **Ijtimoiy ekologiya asoslari**. Toshkent: „Fan va texnologiya“, 2004. DOI: 10.5281/zenodo.10781295



**MEROS MUNOSABATLARIDAN KELIB CHIQUADIGAN
NIZOLARINING TURLARI VA ULARNING HUQUQIY
TABIATI**

**Toshkent davlat yuridik universiteti
2-kurs tayanch doktoranti
Soliyeva Kamola Rustamjon-qizi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada meros munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar huquqiy munosabatlar doirasida tahlil qilinadi. Meros nizolarining tasnifi, ularning huquqiy tabiati va sud amaliyotidagi ifodasi, shuningdek, nizolarni yuzaga keltiruvchi omillar chuqur o'rganiladi. Muallif tomonidan meros nizolarining turli yuridik talqinlari — da'vo va nizo tushunchalari o'rtasidagi farqlar, ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda bayon etilgan. Shu bilan birga, maqolada huquqshunos olimlarning merosga oid nizolar bo'yicha qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Mavzuga oid yondashuvlar orqali meros nizolarini aniqlash va tasniflashda yagona yondashuv ishlab chiqish zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: meros nizosi, meros da'vosi, huquqiy nizo, da'vo tushunchasi, meros mulki, vasiyatnoma, qonuniy merosxo'r, huquqiy munosabat, nizolar tasnifi, merosga oid da'volar.

Abstract: This article analyzes disputes arising from inheritance relations within the framework of legal relations. The classification of inheritance disputes, their legal nature and expression in judicial practice, as well as the factors that give rise to disputes, are studied in depth. The author, on a scientific basis, sets out the differences between various legal interpretations of inheritance disputes - the concepts of claim and dispute, and their interrelationship. At the same time, the article provides a comparative analysis of the views of legal scholars on inheritance disputes. The need to develop a unified approach to the identification and classification of inheritance disputes through thematic approaches is substantiated.



Keywords: inheritance dispute, inheritance claim, legal dispute, concept of claim, inheritance property, will, legal heir, legal relationship, classification of disputes, inheritance claims.

Аннотация: В данной статье анализируются споры, возникающие из наследственных отношений в рамках правоотношений. Глубоко изучаются классификация наследственных споров, их правовая природа и выражение в судебной практике, а также факторы, порождающие споры. Автор на научной основе выявляет различия между различными юридическими толкованиями споров о наследстве - понятиями иск и спор, а также их взаимосвязью. В то же время в статье представлен сравнительный анализ взглядов ученых-правоведов на наследственные споры. Обоснована необходимость разработки единого подхода к выявлению и классификации наследственных споров посредством тематических подходов.

Ключевые слова: наследственный спор, наследственный иск, судебный спор, понятие иска, наследственное имущество, завещание, законный наследник, правоотношение, классификация споров, наследственные иски.

Meros munosabatlaridan kelib chiqadigan nizo - bu yuridik atama bo'lib, marhumning mulkidan o'z ulushini olishni xohlagan bir necha shaxs da'vo qilganda qo'llaniladi. Bu atama marhum shaxsning mol-mulkiga nisbatan huquq talab qilayotgan bir nechta vorislar o'rtasidagi kelishmovchilikni ifodalaydi.

Bunday nizolar hatto vasiyatnoma mavjud bo'lgan taqdirda ham yuzaga keladi, bu esa masalaning tinch yo'l bilan hal etilishini ta'minlamaydi va kafolatlamaydi. Bunday holatlarda kelishuv sud orqali amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, statistik ma'lumotlarga ko'ra, meros bilan bog'liq nizolarni hal qilish masalalari eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik kodeksi moddalarida asosida ko'rib chiqiladi.



Meros nizosi tushunchasi, meros huquqiy munosabatning o'zi kabi, doktrinada keng ko'lamda ishlab o'rganilgan bo'lib, unda ko'pincha "da'vo" va "nizo" tushunchalari bir-biriga tenglashtiriladi. Jumladan, P.S.Nikityuk meros haqidagi da'volarni besh guruhga ajratib, quyidagi nizolarni sanab o'tgan: qonuniy merosxo'rlar o'rtasidagi; qonuniy merosxo'rlar va vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rlar o'rtasidagi; bir vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rlar yoki turli vasiyatnomalar bo'yicha merosxo'rlar o'rtasidagi; davlat va qonuniy yoki vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rlar o'rtasidagi; shuningdek, meros bilan bog'liq boshqa da'volar⁶.

R.A. Arupov ham P.S.Nikityuk kabi quyidagi meros nizolarini ajratib ko'rsatgan: qonun bo'yicha merosxo'rlar o'rtasidagi; qonun bo'yicha merosxo'rlar va vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rlar o'rtasidagi yoki turli vasiyatnomalar bo'yicha merosxo'rlar o'rtasidagi; qonun yoki vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rlar va davlat o'rtasidagi nizolar hamda boshqa meros ishlari⁷.

T.V. Salomatova, meros da'volari tasnifini ochib berar ekan, merosga oid nizolarning quyidagi turlarini sanab o'tgan: qonun bo'yicha merosxo'rlar o'rtasidagi; qonun bo'yicha va vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rlar o'rtasidagi, vasiyatnomaning to'liq yoki qisman haqiqiy emasligi masalasini ko'rib chiqishda yuzaga keladigan; vasiyatnoma bo'yicha yoki turli vasiyatnomalar bo'yicha merosxo'rlar o'rtasidagi; merosxo'rlar va davlat o'rtasidagi nizolar⁸.

Merosga oid da'volarning yuqorida ko'rsatilgan tasniflari olimlar tomonidan moddiy-huquqiy belgisiga ko'ra, ya'ni nizoli huquqiy munosabatning mohiyatiga asoslanib o'tkazilgan. Aynan shu sababli ular "da'vo" va "nizo" tushunchalarini bir xil ma'noda qo'llashga yo'l qo'yganlar.

⁶ Никитюк П.С. Проблемы советского наследственного права: Дисс. ...докт. юрид. наук. Кишинев, 1975. С. 216-217.

⁷ Арупов Р.А. Судебная защита наследственных прав и охраняемых законом интересов граждан. Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. М., 1988. С. 12.

⁸ Саломатова Т.В. Виды исков о наследстве. // Российская юстиция. 2001. № 7. С. 23



Boshqa olimlar, aksincha, merosga oid nizolarni tasniflash jarayonida amalda da'vo turlarini sanab o'tishgan. Jumladan, K.V. Grinberg merosga oid nizolarni tasniflashda da'vo predmetini asos qilib olgan edi. Da'vogarning sudga uning javobgarga nisbatan moddiy-huquqiy talablarini qondirish to'g'risidagi talablariga, ya'ni da'vo predmetiga qarab, muallif merosga oid nizolarni quyidagicha tasniflashni taklif etgan:

1) meros mol-mulkka bo'lgan huquqni tan olish va uni bo'lish to'g'risidagi qonun bo'yicha va vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rlar o'rtasidagi nizolar.

Ushbu guruhdagi nizolar ikki kichik guruhga ajratildi: a) notarial organga murojaat qilingunga qadar yoki murojaat paytida, lekin merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berilgunga qadar yuzaga kelgan nizolar; b) merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berilgandan keyin, notarial organ tomonidan qonun, vasiyatnoma, davlat bo'yicha merosxo'rlarning huquqlari buzilganida yuzaga kelgan nizolar;

2) merosxo'rlar ulushining miqdori belgilangan tartibda aniqlangan taqdirda meros mol-mulkining ulushini asli holda ajratish to'g'risidagi nizolar;

3) merosni qabul qilib olish muddatini uzaytirish bilan bog'liq nizolar;

4) meros qoldiruvchining qarzlarni to'lash bilan bog'liq nizolar;

5) vasiyatnomani haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi nizolar⁹.

Biroq, "meros da'vosi" va "meros nizosi" kabi kategoriyalarning o'zaro chambarchas bog'liqligiga qaramay, ularning farqlariga e'tibor bermaslik mumkin emas.

"Da'vo" atamasi qonunchilikda va sud organlari amaliyotida manfaatdor shaxsning sudga murojaatini ifodalash uchun ham, da'voning predmeti, asosi, shuningdek da'vogarning javobgarga nisbatan talabini ifodalash uchun ham

⁹ Гринберг К.В. Защита наследственных прав в нотариальном и судебном порядке. Дисс. ... канд. юрид. наук. Свердловск, 1990. С. 23.



qo'llaniladi. Da'vo - bu huquqni himoya qilish to'g'risidagi sudga qaratilgan talabdir. Da'vogar tomonidan javobgarining buzilgan huquqni tiklash majburiyatini ko'rsatish faqat vakolatli shaxsning qarzdorga da'vosini ifodalash shakli, sud muhokamasi predmetini belgilash usulidir. Da'vogarning sudga murojaat qilishi buzilgan huquqni himoya qilish uchun fuqarolik sud ishlarini qo'zg'atish vositasi hisoblanadi, javobgarga nisbatan qo'yilgan talab taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilash maqsadida sudning ko'rib chiqish predmeti hisoblanadi.

"Da'vo" haqidagi ta'limot o'z ildizini Rim huquqidan oladi. Shu bilan birga, Rim huquqshunoslari tomonidan berilgan "da'vo" tushunchasining mazmuni ham saqlanib qolgan va zamonaviy huquqshunoslar tomonidan huquqni qo'llash amaliyotida keng foydalanilmoqda. Digestlarda da'voning umumiy tushunchasi quyidagicha keltirilgan: da'vo - bu shaxsning o'ziga tegishli talabni sud tartibida amalga oshirish huquqidan boshqa narsa emas¹⁰.

Da'vo tushunchasi yuridik adabiyotlardagi eng munozarali masalalardan biridir. Eng umumiy ta'rif shundan iboratki, da'vo deganda da'vogarning javobgarga uning huquqi yoki qonuniy manfaati himoya qilinishi to'g'risida birinchi instansiya sudi orqali murojaat qilgan talabi tushuniladi. Da'vo - da'vogarning manfaatlarini himoya qilishning protsessual vositasi, da'vo da'vo ishini qo'zg'atadi, shu bilan nizo sudda ko'rish uchun o'tkaziladi.

Da'vo tushunchasining bir nechta asosiy konsepsiyalari haqida so'z yuritish mumkin.

Birinchidan, moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy ma'noda da'vo qilish huquqini farqlash. Protsessual ma'nodagi da'vo - o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi birinchi instansiya sudiga yo'naltirilgan talabdir. Bu jihatdan da'vo fuqarolik protsessini boshlash vositasi hisoblanadi.

¹⁰ Гражданское право. Том 1: Учебник / Г.Н. Черничкина, В.В. Бараненков, И.В. Бараненкова и др.; Под ред. Г.Н. Черничкиной - М.: ИЦ РИОР: НИЦ Инфра-М, 2013 - 448 с



Ikkinchidan, bir qator mutaxassislar – A.F. Kleyman, A.A. Dobrovolskiy va boshqalar da’voni ikki tomondan iborat yagona tushuncha sifatida ko‘rib chiqdilar: moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy. Da’voning protsessual-huquqiy tomoni - bu da’vogarning o‘z huquqini himoya qilish to‘g‘risida sudga bo‘lgan talabi. Da’voning moddiy-huquqiy tomoni esa moddiy huquq yoki manfaatni himoya qilish to‘g‘risidagi talab hisoblanadi.

Boshqa olimlar K.S. Yudelson, V.M. Semyonov, K.I. Komissarovlar da’voni fuqarolik protsessual huquqi kategoriyasi sifatida talqin qilganlar. G.L. Osokina ham taxminan shunday yondashuvni qo‘llaydi. Bu qarash M.A. Gurvichning nuqtai nazariga yaqin bo‘lib, to‘g‘riroq ko‘rinadi. Da’vo fuqarolik protsessual huquqining tushunchasi va instituti hisoblanadi, shu sababli u bunday ikki tomonlama moddiy-protsessual institut bo‘la olmaydi. Shuning uchun da’voni birinchi instansiya sudiga da’vogarning javobgarga qarshi o‘z huquqini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish to‘g‘risidagi talabi sifatida ta’riflash maqsadga muvofiqdir¹¹.

K.I. Komissarov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “subyektiv huquq va da’vo fuqarolik huquqi hamda sud jarayoni o‘rtasidagi munosabatni kichik ko‘rinishda aks ettiradi”.

I.M. Zaytsev ta’kidlaganidek, da’vo fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan himoyalangan manfaatlarini sud orqali himoya qilish elementi sifatida protsessual va moddiy huquqning boshqa vositalari bilan uzviy bog‘liq va ular bilan faol o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Manfaatdor shaxslar o‘z huquqlari buzilganda

¹¹ Иноценко В.А., Гужов Е.А. ИСК В ГРАЖДАНСКОМ ПРОЦЕССЕ: ПРОБЛЕМЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ. КОНФЕРЕНЦИЯ: СЕМЬЯ. ОБЩЕСТВО. ГОСУДАРСТВО: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ – III. Ставрополь, 17 декабря 2013 года материалы Всероссийской научно-практической конференции (с международным участием). ФГБОУ ВПО «Российский государственный социальный университет» в г. Ставрополе; под редакцией: Гударенко Р.Ф., Ряснянской Н.А., Автомоновой М.В.. 2014



yoki nizolashilganda o‘z huquqiy talablarini da’vo talablari shaklida ifodalaydilar. Taqdim etilgan da’voga muvofiq, sud fuqarolik huquqi to‘g‘risidagi nizoni ko‘rib chiqish va hal etish uchun da’vo ishini boshlaydi¹².

Umuman olganda, protsessual fanda da’vo tushunchasini shakllantirishda to‘rtta asosiy yondashuv an’anaviy ravishda ajratib ko‘rsatiladi:

1) bu manfaatdor shaxsning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqini yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun yurisdiksiya organiga murojaat qilishi (P.V. Loginov, V.N. Shcheglov)¹³;

2) da’vo ikki talabning birligi bo‘lib, ikki tomonlama xususiyatga ega: moddiy-huquqiy (da’vogarning javobgarga nisbatan talabi) va protsessual-huquqiy (sudga huquqni himoya qilish haqidagi talab) (A.A. Dobrovolskiy, S.A. Ivanova);

3) bu ikki huquq sohasiga xos bo‘lgan institut: moddiy va protsessual. Protsessual ma’noda da’vo – bu manfaatdor shaxsning huquqni himoya qilish to‘g‘risidagi sudga yo‘llangan talabi. Moddiy huquqdagi da’vo esa – da’vogarning sud orqali javobgarga qaratilgan moddiy-huquqiy da’vosi, ya’ni sud tomonidan himoya qilinadigan fuqarolik huquqining o‘zi (M.A. Gurvich)¹⁴;

4) bu manfaatdor shaxsning da’vogar ko‘rsatgan nizoli moddiy-huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan, buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqni yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatni (o‘zining yoki boshqa shaxsning) himoya qilish to‘g‘risidagi, qonunda qat’iy belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi va hal etilishi lozim bo‘lgan talabi (G.L. Osokina).

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, da’vo tushunchasini atroflicha tahlil qilib, da’vo tushunchasiga quyidagicha yondashishimiz mumkin: da’vo - da’vogarning manfaatlarini himoya qilishning protsessual vositasi bo‘lib, u da’vo

¹² И.М. Функции иска в судопроизводстве // Государство и право. 1996. № 7. С. 88.

¹³ Логинов П.В. Понятие иска и исковая форма защиты права // Советское государство и право. 1983. № 2. С. 100

¹⁴ Гурвич М.А. Учение об иске. М., 1981. С. 7.



ishini qo'zg'atadi va shu orqali nizoni ko'rib chiqish uchun sudga o'tkazadi. Da'vo taqdim etish shartlari va sudda da'vo ishi yuritish tartibida ish qo'zg'atish imkoniyatining o'zi faqat protsessual-huquqiy holatlarga bog'liq. Shu sababli, da'voni faqat fuqarolik protsessual huquqining toifasi sifatida aniqroq tavsiflash maqsadga muvofiqdir. Da'vo fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan himoyalangan manfaatlarini sud orqali himoya qilish tizimining bir qismi sifatida protsessual va moddiy huquqning boshqa vositalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan faol o'zaro ta'sirda bo'ladi. Manfaatdor shaxslar o'z huquqlari buzilganda yoki nizolashilganda o'z huquqiy talablarini da'vo talablari ko'rinishida shakllantiradilar. Taqdim etilgan da'voga muvofiq sud da'vo ishini yuritishni boshlaydi va shu jarayonda nizo ko'rib chiqiladi hamda hal etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda huquq to'g'risidagi nizo kategoriyasi moddiy huquq (N.B. Zeyder, M.A. Vikut) yoki protsessual huquq (I.A. Jeruolis, I.B. Moreyn) instituti sifatida ham talqin qilinadi¹⁵. Xususan, M.A. Gurvich huquqiy nizoni fuqarolik huquqini amalga oshirishga to'siq sifatida ta'riflagan. A.M. Nexoroshix esa huquq to'g'risidagi bahsning mohiyatini uning qarama-qarshi tomonlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar mavjudligi bilan bog'lagan¹⁶.

L.A. Vaneeva, L.A. Nikolayeva, N.A. Chechina va boshqa olimlar nizoning mohiyatini huquqbuzarlik yoki huquqbuzarlik natijasida yuzaga kelgan huquqiy holat (huquqiy munosabat) sifatida talqin etishgan. I.A. Jeruolis esa nizoni haqiqatda sodir bo'lgan yoki taxmin qilingan huquqbuzarlikdan kelib chiqadigan huquqiy tuzilma sifatida ko'rib chiqqan¹⁷.

¹⁵ Гринберг К.В. Защита наследственных прав в нотариальном и судебном порядке. Дисс. ... канд. юрид. наук. Свердловск, 1990. С. 123-124.

¹⁶ Нехороших А.М. Претензионное производство как институт досудебного урегулирования споров, возникающих из правоотношения по железнодорожной перевозке грузов. Дисс. ...канд. юрид. наук. Саратов, 2004. С. 28

¹⁷ Сигаева Т.А. Подходы к определению сущности правового спора // Евразийский юридический журнал. 2010 № 1 (20). С. 517522.



M.M. Nenashevning fikricha, huquq haqidagi nizo - bu ikki taraf xohish-irodasining obyektiv ifodalangan ziddiyati bo'lib, u bir tarafning yuridik xususiyatga ega bo'lgan talabidan va ikkinchi tarafning ushbu talabni amalda qondirishga to'sqinlik qiluvchi huquqiy holatidan iborat¹⁸.

Umuman olganda, T.A. Sigayeva to'g'ri ta'kidlaganidek, huquqiy nizoning mohiyati huquq va majburiyatlar yoki qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlar to'qnashuvidir. Bunda muallif ko'rsatadiki, tomonlar manfaatlarining ziddiyati shunday keskinlik chegarasiga yetganda nizo shakllanadi, qachonki u kamida bir tomonning o'z huquqlarini yoki qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarini himoya qilish borasidagi xohish-irodasida namoyon bo'ladi¹⁹.

Shunday qilib, meros huquqiy munosabatlari subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy nizo manfaatlar to'qnashuvi hisoblanib, u meros huquqlarining buzilishi, ularni amalga oshirishga to'sqinlik qilish yoki mavjud noaniqlik natijasi bo'lishi mumkin. Meros nizosining subyektlari aynan nizoli meros huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari, xususan: vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rlar va ular tomonidan tayinlangan shaxslar; qonun bo'yicha merosxo'rlar; vakil qilib tayinlash huquqi asosida meros oluvchilar; meros transmissiyasi tartibida meros oluvchilar; majburiy ulushga huquqi bo'lgan merosxo'rlar; meros qoldiruvchining mehnatga layoqatsiz qaramog'idagi shaxslar; vasiyatnomani ijro etuvchi; vasiyat bo'yicha meros oluvchi; vasiyat bo'yicha meros oluvchilarga tayinlangan shaxslar; meros qoldiruvchining kreditorlari.

Meros da'vosining taraflari sifatida da'vogar va javobgar ishtirok etadi. Ular ish qo'zg'atilgan paytda nizoli meros huquqiy munosabatlarning subyektlari deb

¹⁸ Ненашев М.М. Спор о праве и его место в гражданском процессе. Автореф. дисс... канд. юрид. наук. Саратов, 2011. С. 8

¹⁹ Сигаева Т.А. Подходы к определению сущности правового спора // Евразийский юридический журнал. 2010 № 1 (20). С. 517522.



taxmin qilinadi. Bunda sud da'vogarning vorislik huquqi taxmin qilinayotgan javobgar tomonidan buzilgan deb hisoblaydi. Aslida, taraflar o'rtasida meros huquqiy munosabatlarning yo'qligi yoki da'vogarning vorislik huquqi javobgar tomonidan buzilganligi aniqlanishi turli xil protsessual-huquqiy oqibatlariga olib keladi. Bu oqibatlar noto'g'ri javobgarni almashtirish yoki da'vo talablarini qanoatlantirishni rad etish masalasini hal qilishga ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda meros haqidagi da'vo tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Masalan, V.I. Serebrovskiy meros da'vosini merosxo'rga yoki merosxo'r deb taxmin qilingan shaxsga tegishli bo'lgan barcha narsalarni talab qilishga qaratilgan da'vo sifatida tushungan. Bu haqiqiy merosxo'rning noqonuniy egallovchidan meros mulkini talab qilish da'vosi, shuningdek merosxo'rlarning boshqa shaxslar tomonidan noqonuniy o'zlashtirilgan ulushlarini qaytarib berish to'g'risidagi da'vosi bo'lishi mumkin²⁰.

A.I. Barishev esa meros da'vosini meros olish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan o'zlashtirilgan huquq va majburiyatlar yig'indisi to'g'risidagi talab sifatida ta'riflaydi²¹.

P. S. Nikityuk qonun yoki vasiyatnoma asosida merosxo'rlar doirasini aniqlash va ularning meros vorisligida ishtirok etish xususiyati to'g'risidagi talabni meros da'vosi deb ataydi²².

Merosga oid da'vo tushunchasi asosan fuqarolik huquqi olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, keltirilgan nuqtayi nazarlar, birinchi navbatda, uning moddiy-huquqiy jihatini ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan tushunchalar meros da'vosining faqat qisman ta'rifini o'z ichiga oladi, chunki meros

²⁰ Серебровский В.И. Избранные труды по наследственному и страховому праву. М., 2003. С. 236237.

²¹ Барышев А.И. Приобретение наследства и его юридические последствия. М., 1960. С. 79.

²² Янева Р.Р. Наследственные иски и их виды // Труды Оренбургского института (филиала) МГЮА. 2009. № 10. С.157171



da'vosi nafaqat da'vogarning javobgarga buzilgan huquqni bartaraf etish to'g'risidagi moddiy-huquqiy talabini, balki protsessual-huquqiy jihatni - da'vogarning huquqni himoya qilish uchun sudga murojaat qilishini ham qamrab olishi lozim.

O'z navbatida, merosga oid nizo - bu merosga oid huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi kelishmovchiliklarning o'zidir. Merosga oid da'vo esa - bu nizo oqibatida sudga taqdim etiladigan moddiy-huquqiy talabdir.

O'z navbatida, meros nizosi manfaatdor shaxs tomonidan tegishli da'vo sud organlariga taqdim etilgan taqdirdagina sud ishiga aylanadi.

Keng ma'noda merosga oid nizolarni tasniflash ular kelib chiqqan moddiy meros-huquqiy munosabatlarning mohiyatiga asosan amalga oshirilishi lozim. Shunday qilib, meros-huquqiy munosabatning turiga qarab nizolarning ikkita asosiy guruhini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) meros olishga oid nizolar, ya'ni universal huquqiy vorislik tartibida mulkiy huquq va majburiyatlarning meros qoldiruvchidan merosxo'rlarga o'tishi bilan bog'liq huquqiy mojarolar;

2) meros qoldiruvchining majburiyatlari bilan bog'liq, meros huquqlarini tiklashga qaratilmagan, biroq merosning ochilishi manfaatdor shaxslar (xususan, meros qoldiruvchining kreditorlari) talablarining asoslaridan biri hisoblangan nizolar.

Meros nizosi vakolatli sud organiga ko'rib chiqish uchun topshirilganda, u meros da'vosiga aylanadi. Shu sababli, R.R.Yaneyeva tomonidan ilgari bildirilgan meros da'volarini mazkur ikki guruhga tasniflash borasidagi nuqtai nazar o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Meros bilan bog'liq nizolar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: merosni qabul qilish muddatini tiklash haqida; meros mol-mulkka nisbatan mulk huquqini tan olish to'g'risida; merosni taqsimlash haqida; vasiyatnomani haqiqiy emas deb topish to'g'risida; merosdan voz kechishni bekor qilish haqida;



merosxoʻrni noloyiq deb eʼtirof etish toʻgʻrisida; merosda majburiy ulushga boʻlgan huquq haqida; mol-mulkni meros tarkibiga kiritish toʻgʻrisida; mol-mulkning alohida turlarini meros qilib olish haqida va boshqalar.

Shu bilan birga, meros nizolariga xos boʻlgan quyidagi xususiyatlar mavjudligini tan olmaslik mumkin emas: bunday nizo meros ochilishidan oldin vujudga kelishi mumkin emas; unda meros qoldiruvchining ishtirok etishi imkonsiz; meros qoldiruvchi hayotligida homilador boʻlgan, lekin hali tugʻilmagan merosxoʻrning manfaatlarini hisobga olish zarurati; nizo ishtirokchilarining potensial koʻpligi; nizoning huquqiy va axloqiy jihatlarining uygʻunlashuvi²³.

Merosga oid, biroq yuqorida keltirilgan xususiyatlarga mos kelmaydigan ishlar meros nizolari hisoblanmaydi. Qarindoshlik munosabatlari faktini yoki bajarilmagan vasiyatnomaning haqiqiy emasligiga asos boʻlgan yuridik holatni aniqlash zarurati, notariusning meros huquqi haqidagi guvohnomani berishni rad etishi va boshqa shunga oʻxshash holatlarda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar nizoli hisoblanmaydi. Aynan shu sababli, bunday talablar umumiy yurisdiksiya sudi tomonidan daʼvo tartibida emas, balki alohida ish yuritish tartibida koʻrib chiqiladi.

Biroq, yuqorida taʼkidlanganidek, meros huquqi sohasidagi islohotlar meros bilan bogʻliq nizolarning tasniflanishiga taʼsir qilmasligi mumkin emas edi. Bugungi kunda bunday nizolar qatoriga quyidagilarni ham kiritish mumkin: er-xotinning birgalikdagi vasiyatnomasini haqiqiy emas deb topish toʻgʻrisidagi; meros shartnomasini oʻzgartirish, bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb topish haqidagi; meros fondini tashkil etish toʻgʻrisidagi va boshqa shu kabi masalalar.

Shunday qilib, merosga oid nizolarni merosning ochilishi munosabati bilan va merosga oid huquqiy munosabatlarning bir tomonining boshqa tomonining keng

²³ Долганова И.В., Ерофеева Д.В., Ефимова О.В., Кирпичев А.Е., Кулаков В.В., Левушкин А.Н., Свирин Ю.А., Смирнова В.В., Филиппова С.Ю. Актуальные проблемы гражданского права: учебник (под ред. д.ю.н., проф. Р.В. Шагиевой). «ЮСТИ ЦИЯ», 2019 // СПС «Гарант».



ma'nosida merosga oid huquqlari buzilishi yoki nizolashuvi natijasida kelib chiqqan meros huquqi subyektlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar (ziddiyatlar) sifatida tavsiflash mumkin.

Merosga oid nizo taraflar tomonidan mustaqil ravishda yoki da'vo ishini yuritish doirasida sud tartibida hal etilishi mumkin, buning uchun manfaatdor shaxslar protsessual qonun hujjatlari talablariga javob beradigan merosga oid da'vo taqdim etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Никитюк П.С. Проблемы советского наследственного права: Дисс. ...докт. юрид. наук. Кишинев, 1975. С. 216-217.
2. Арупов Р.А. Судебная защита наследственных прав и охраняемых законом интересов граждан. Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. М., 1988. С. 12.
3. Саломатова Т.В. Виды исков о наследстве. // Российская юстиция. 2001. № 7. С. 23
4. Янева Р.Р. Наследственные иски и их виды // Труды Оренбургского института (филиала) МГЮА. 2009. № 10. С.157171



NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR UCHUN INKLYUZIV KUTUBXONA XIZMATLARINI YARATISH

Sulaymonova Shoira Riskulovna
Jizzax viloyat Arnasoy tuman Axborot-kutubxona markazi,
Axborot-bibliografiya xizmat rahbari
E-mail:sulaymonovashoira743@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun kutubxona xizmatlarining inklyuzivligini ta‘minlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Kutubxonalarning ijtimoiy adolat va axborotga teng huquqli kirishni ta‘minlovchi muassasa sifatida roli tahlil qilinadi. Muallif kutubxonalarda mavjud muammolar, nogiron foydalanuvchilar ehtiyojlari va zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlari asosida inklyuziv xizmatlar modelini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar beradi. Maqolada xorijiy tajriba, mavjud huquqiy-me‘yoriy baza va O‘zbekistondagi amaliy holat o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv kutubxona, nogironligi bo‘lgan shaxslar, axborotga kirish, imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar, raqamli texnologiyalar

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения инклюзивности библиотечных услуг для лиц с инвалидностью. Анализируется роль библиотек как учреждений, обеспечивающих социальную справедливость и равный доступ к информации. Автор предлагает разработать модель инклюзивных услуг, основанную на существующих проблемах в библиотеках, потребностях пользователей с ограниченными возможностями и возможностях современных технологий. В статье исследуется зарубежный опыт, существующая нормативно-правовая база и практическая ситуация в Узбекистане.

Ключевые слова: инклюзивная библиотека, люди с ограниченными возможностями, доступ к информации, пользователи с ограниченными возможностями, цифровые технологии



Annotation: This article examines the creation of inclusive library services for people with disabilities. It analyzes the role of libraries as institutions that ensure social justice and equal access to information. The author identifies key issues faced in current library systems and proposes a model for inclusive services based on user needs and modern technologies. The paper discusses international best practices, relevant legal frameworks, and the current situation in Uzbekistan.

Keywords: inclusive library, people with disabilities, access to information, accessibility, digital technologies

XXI asrda kutubxonalar nafaqat axborot markazlari, balki jamiyatda ijtimoiy tenglik va madaniy inklyuziya markazlariga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabdagi 61/106-rezolyusiyasi bilan qabul qilingan **“Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”** hamda **“Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga Fakultativ protokol”** ana shu xalqaro hujjatlarning asosiylari hisoblanadi. Afsuski, ko‘plab kutubxona tizimlarida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun xizmatlar hali ham cheklangan yoki yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Ho‘sh, **inklyuziv kutubxona o‘zi nima?** Inklyuziv kutubxona – bu barcha foydalanuvchilar, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun teng va to‘sqinliksiz axborot xizmatlarini taqdim etuvchi muassasa. Uning asosiy maqsadi – **barchaga axborot, bilim va madaniy resurslardan foydalanish imkonini yaratish**, bu orqali ijtimoiy tenglik va inklyuziyani ta‘minlashdir.



Misol uchun inklyuziv kutubxona o'zining alohida talablari bo'ladi va ular quyidagilardir.

Ma'lumki, jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun kutubxona xizmatlaridan foydalanish uchun panduslar, keng eshiklar, liftlar, past balandlikdagi javonlar va albatta nogiron aravachasida harakatlanuvchi shaxslar uchun qulay muhit yaratilgan bo'lishi lozim. Buning uchun yuqorida keltirilgan qulayliklar bo'lgandagina inklyuziv kutubxona talablarining birinchi bosqich imkoniyati bajarilgan hisoblanadi. Keyingi va asosiy talablardan biri bu mavjud axborot resurslaridan foydalanishni moslashtirish va ular quyidagilar bo'lishi mumkin: brayl alifbosida kitoblar, ovozli (audio) kitoblar, katta shriftli matnlar, kompyuter va mobil qurilmalarda ekranni o'qib beruvchi dasturlar

Shu bilan birgalikda, inklyuziv kutubxonada texnologik yechimlar ham inklyuzivlikning bir qismi bo'ladi. Masalan, ko'rish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ekran kontrastini sozlash imkoniyati, ovoz va nutq imkoniyatlari uchun til va nutqni avtomatik tarjima qilish tizimlari, onlayn xizmatlaridan oson foydalanish: masofaviy kitob buyurtmasi, raqamli kataloglar ham shular jumlasidandir.

Inklyuziv kutubxonaning yana bir asosiy rollaridan biri bu kadrlar tayyorgarligidir. Bunday kutubxona kutubxonachilarining nogironligi bo'lgan foydalanuvchilar bilan muloqot va xizmat ko'rsatish bo'yicha treninglardan o'tgan bo'lishi va yordamchi til (masalan, ishorat (surdo) tili)ni biluvchi xodimlar bo'lishi inklyuziv kutubxona xizmatlarining asosiy imkoniyatlaridan biridir.

O'zbekiston kutubxonalarida mavjud holat

O'zbekiston kutubxonalarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha dastlabki bosqichdagi harakatlar mavjud, ammo ularni tizimli deb atashga hali erta. Quyida mavjud holat bo'yicha asosiy jihatlar keltiriladi:



Jismoniy infratuzilma jihatidan ko‘pgina kutubxonalar (ayniqsa, mahalliy va qishloq kutubxonalari) jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun moslashtirilmagan: Panduslar (nogiron aravachasi uchun yo‘laklar) yetarli emas yoki mavjud emas, liftlar ko‘pchilik binolarda yo‘q, kirish eshiklari va o‘quv zallari nogiron foydalanuvchilar uchun qulay emas, Yangi qurilayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan kutubxonalarda universal dizayn prinsiplari hali keng tatbiq qilinmagan.

Axborot resurslarining mavjudligi jihatidan brayl alifbosida adabiyotlar soni cheklangan va faqat yirik kutubxonalardagina mavjud (masalan, Respublika ko‘zi ojizlar kutubxonasi). Audio kitoblar fondi keng emas, asosan ko‘zi ojizlar uchun maxsus kutubxonalarda mavjud. Internet orqali foydalaniladigan raqamli platformalarda aksariyat materiallar imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga moslashtirilmagan. Shu qatorda kutubxona xodimlarining inklyuziv xizmatlar bo‘yicha maxsus tayyorgarligi ko‘pchilik hollarda mavjud emas. Masalan: Ishorat tili, maxsus ehtiyojli foydalanuvchilar bilan muloqot texnikasi kabi ko‘nikmalar yetishmaydi. Ba’zi yirik kutubxonalarda nogironlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus bo‘limlar faoliyat yuritadi, lekin bu tizim keng tarqalmagan. Kutubxonachilarning inklyuziv xizmat ko‘rsatish bo‘yicha malakasi hali yetarli darajada emas. So‘nggi yillarda trening va o‘quv kurslari o‘tkazilmoqda, ammo keng qamrovli emas.

Shu bilan birga inklyuziv kutubxona bo‘yicha ijobiy qadamlar va tashabbuslar ham amalga oshirilmoqda. Misol uchun, Respublika ko‘zi ojizlar kutubxonasi faoliyati ijobiy namunadir – bu yerda brayl resurslar, audio-kitoblar, maxsus texnika mavjud. Ba’zi universitet kutubxonalari (masalan, Toshkent davlat yuridik universiteti, Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti) o‘z kutubxonalarini imkoniyati cheklangan talabalarga moslashtirishni boshlagan. Ijtimoiy loyihalar va xalqaro grantlar orqali nogironlar uchun mobil ilovalar yoki audio materiallar yaratilmoqda (lekin keng ko‘lamda emas).



O‘zbekistondagi kutubxonalar inklyuzivlik yo‘lida muayyan qadamlarga ega bo‘lsa-da, hali to‘liq qamrovli tizimga ega emas. Jismoniy infratuzilma, raqamli texnologiyalar, kutubxonachilar malakasi va xizmatlar dizayni sohalarida tub islohotlar va davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash zarur.

Mazkur sohadagi mavjud muammolar va yechimlarni xulosa qiladigan bo‘lsak,

Muammolar

Hududiy kutubxonalarda inshootlar inklyuziv emas, moslashgan adabiyotlar yetishmaydi, xodimlar yetarli tayyorgarlikka ega emas, jamiyatdagi umumiy ong va yondashuv hali to‘liq shakllanmagan.

Yechimlar

Kutubxonalar infratuzilmasini moslashtirish uchun davlat grantlari va xususiy homiylikni jalb etish, inklyuziv xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kutubxonachilarni tizimli o‘qitish, brayl, audiokitob va elektron resurslar fondini kengaytirish, mahalliy aholiga inklyuzivlik bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish, O‘zbekiston kutubxonalarida inklyuzivlik yo‘nalishida islohotlar davom etmoqda va kelajakda barcha kitobxonlar uchun yanada qulay, teng imkoniyatli sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Xorijiy tajribalar (AQSh, tajribasi)

Universal xizmat prinsipi.

Amerika kutubxonalari assotsatsiyasi (ALA) “Accessible to All” tamoyiliga amal qiladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus o‘rinlar, tinglash qurilmalari, Brayl printerlari va ekran o‘quvchi dasturlari mavjud.

AQSHda ko‘plab jamoat kutubxonalari, masalan, Nyu-York jamoat kutubxonasi va Los-Anjeles jamoat kutubxonasi, inklyuzivlik tamoyillarini faol amalga oshiradi. Ularda:

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun liftlar, maxsus kirish yo‘laklari, ovozli va Brayl shriftidagi kitoblar mavjud.



Ko'zi oqizlar uchun audio kitoblar va ekran o'quvchi dasturlar (screen reader) taklif etiladi.

Til va madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'p tilli kitoblar va dasturlar yaratilgan.

Britaniyada kutubxonalar "Universal Access" (Umumiy kirish) konsepsiyasiga amal qiladi. Kutubxonalarda autizmga ega bolalar uchun maxsus tinch zonalar va sensor xonalar mavjud. Kitob tanlashda o'quvchilarga maxsus yo'riqnomalar beriladi.

Imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun "mobil kutubxona" xizmati yo'lga qo'yilgan (masalan, uyga kitob yetkazib berish).

Skandinaviya mamlakatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya)da kutubxona tizimi "hammani qamrab olish" prinsipiga asoslangan.

Kutubxona xodimlari maxsus inklyuzivlik bo'yicha tayyorgarlikdan o'tgan.

Interaktiv o'yin maydonchalari, oilaviy o'quv dasturlari mavjud.

Ruhiy salomatlik bo'yicha maslahat va qo'llab-quvvatlash xizmatlari ko'rsatiladi.

Dunyo tajribasidan ko'rinib turibdiki, inklyuziv kutubxona nafaqat infratuzilmani moslashtirish, balki xodimlarning tayyorgarligi, texnologiyalardan foydalanish va foydalanuvchilarga nisbatan g'amxo'rlik madaniyatini shakllantirishni ham talab qiladi. Shu yo'sinda, O'zbekiston kutubxonalari uchun xorijiy tajribalarni o'rganish va moslashtirish, milliy madaniyat va ehtiyojlarga mos innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Inklyuziv kutubxonalarni rivojlantirish bo'yicha takliflar

Infratuzilmani moslashtirish uchun nogironlar aravachasi foydalanuvchilari uchun panduslar (ramplar), keng eshiklar va maxsus hojatxonalar qurish.

Yoshi katta va ko'zi oqiz kishilar uchun lift va maxsus tutqichlar o'rnatish.

Binoda shovqinni kamaytirish uchun maxsus ovoz yutuvchi materiallar ishlatish.



Axborot resurslarini moslashtirish uchun brayl alifbosidagi kitoblar va nashrlarni ko‘paytirish.

Audiokitoblar fondini kengaytirish (shu jumladan o‘zbek va rus tillarida).

Ekran o‘quvchi dasturlar (screen reader) o‘rnatilgan kompyuter va planshetlar qo‘yish. Undan tashqari xodimlarni tayyorlash uchun xodimlarga inklyuziv xizmat ko‘rsatish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarini o‘tkazish, nogironligi bo‘lgan, keksalar va bolalar bilan ishlash psixologiyasi bo‘yicha treninglar. Ishchilarga ishora tili asoslarini o‘rgatish.

Nogironligi bor hamda imkoniyati cheklanganlar uchun madaniy va ijtimoiy tadbirlarni tashkil qilish. Nogironligi bo‘lgan san‘atkorlar va yozuvchilar ishtirokida uchrashuvlar o‘tkazish, «Hammani qamrab oluvchi o‘qish kuni», «Brayl kitob haftaligi» kabi maxsus tadbirlar. Bolalar uchun interaktiv va sensorli o‘quv mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish.

Jamiyatni hamma uchun teng imkoniyatlardan foydalanish maqsadida hamkorlik va jamoatchilikni jalb qilish. Nogironlar jamiyatlari, ijtimoiy tashkilotlar va mahalla qo‘mitalari bilan hamkorlik qilish, xususiy sektor (homiylar) va xalqaro tashkilotlar bilan grant va loyiha asosida ishlash, universitetlar va ilmiy markazlar bilan inklyuziv xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish.

Xulosa sifatida aytib o‘tishimiz joizki, inklyuziv kutubxona — bu nafaqat fizik jihatdan moslashgan bino, balki jamiyatdagi hammani teng qabul qilish madaniyati demakdir. Yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, kutubxonalar har bir fuqaro uchun haqiqiy axborot va madaniyat markaziga aylanishi mumkin.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv kutubxona xizmatlari yaratilishi – bu nafaqat axborotga kirish masalasi, balki inson huquqlari va ijtimoiy adolatni ta‘minlash vositasidir. Buning uchun tizimli yondashuv va jamiyatning barcha qatlamlari ishtiroki muhimdir.



Inklyuziv kutubxona zamonaviy jamiyatning ijtimoiy adolat, tenglik va har bir fuqaroning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan eng muhim madaniy va ma'rifiy markazlaridan biridir. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, inklyuziv yondashuv nafaqat infratuzilmani moslashtirish, balki axborot resurslarini diversifikatsiya qilish, xodimlarning malakasini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etishni ham talab qiladi.

Bunday kutubxonalar imkoniyati cheklangan shaxslar, yoshi katta kishilar, bolalar va turli ijtimoiy guruhlar uchun o'ziga xos qulay va ochiq muhit yaratib, ularni bilim va madaniyat manbalariga yaqinlashtiradi. Shu yo'l bilan kutubxonalar aholining barcha qatlamlarini yagona axborot maydonida birlashtirish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida ham inklyuziv kutubxonalarni rivojlantirish, xorijiy tajribani o'rganish va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali jamiyatda kitobxonlik va axborot madaniyatini yanada rivojlantirish mumkin. Shu bois, inklyuziv kutubxonalar bugun va kelajak uchun dolzarb va istiqbolli yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'.Nosirov, Kutubxona – axborot xizmati nazariyasi va amaliyoti “Toshkent - 2023” 164-bet
2. Jenkins, C., & Mates, B. (2020). *Library Services for People with Disabilities: A Guide for Librarians and Service Providers*. Chicago: ALA Editions.
3. Шведова, Н. И. (2021). Инклюзивные библиотечные услуги: международный опыт и перспективы развития в СНГ. // *Библиотечное дело*, №4, с. 15–22.



4. □ Мамашева, М. А. (2023). Nogironligi bo‘lgan foydalanuvchilar uchun axborot xizmatlari samaradorligi. // *Axborot kutubxona jurnali*, №1, 35–42-бет.
5. □ Ергашев, III. (2022). Raqamli kutubxonalar va nogironlar uchun imkoniyatlar. // *Zamonaviy kutubxonachilik muammolari*, 2-son.
6. □ World Health Organization (WHO). (2011). *World Report on Disability*. Geneva: WHO Press.



**MAKTAB O'QUVCHILARIDA MUTOLAA
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA
KUTUBXONACHI, OTA-ONA VA O'QITUVCHILAR
HAMKORLIGI**

Sulaymonova Shoiria Riskulovna

**Jizzax viloyat Arnasoy tuman Axborot-kutubxona
markazi axborot-bibliografiya xizmat rahbari**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirish o'quvchilarda kitobga bo'lgan qizishiqishini oshirish oilaviy kitobxonlik haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования культуры чтения у школьников, повышения интереса к книгам у учащихся, семейного чтения.

Abstract: This article discusses the issues of forming a reading culture among schoolchildren, increasing interest in books among students, and family reading.

Kalit so'z: kutubxona kitob, oilaviy kitobxonlik, kitobga qiziqish, mutolaa madaniyatini shakllantirish.

Ключевые слова: Библиотечная книга, семейное чтение, интерес к книге, формирование культуры чтения.

Keywords: Library book, family reading, interest in books, formation of reading culture.

Kutubxona - bu o'rganishga tayyor bo'lgan barcha odamlarni birlashtiradigan platforma. Bunda yoshlar va maktab o'quvchilarida kitob mutolaa qilish qobiliyatini



shakllantirishda o'qituvchi, kutubxonachi va ota-onalar muhim rol o'ynaydi. Bu o'quvchilarning bilimini oshirish va kengaytirishga ham yordam beradi. XXI asr texnika rivojlangan bir davrda, o'quvchilarning kitob mutolaa qilish madaniyatini rivojlantirish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ho'sh, hozirgi kunda nega o'quvchilarda kitob mutolaasi juda kam? Buning bir necha sabablari bor. Buning sabablaridan biri odamlarning bo'sh vaqtlari uchun kitob mutolaasiga raqobatdosh bo'ladigan striming xizmatlari hamda ijtimoiy tarmoq chatlari kabi raqamli ko'ngilochar variantlarning ko'payishidir. Albatta, bu jarayon kelajagimiz bo'lgan yosh avlodga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Misol uchun, uyda bo'sh vaqtini o'tkazayotgan kattalar farzandlariga namuna bo'lishadi. Ya'ni ular kitob o'qishsa, farzandlar ham ularga taqlid qilishadi. Ota-onalarining ijtimoiy tarmoqda vaqtini o'tkazganini yoki striming (jonli efir)da muloqot qilayotganini ko'rgan farzandlar o'zlarini e'tiborsiz qolayotganini his qilishadi va albatta ularda kitob mutolaasi o'rnini gadjetlar egallaydi. Bundan tashqari, turmush tarzi, ish tartibi va ta'lim ustuvorliklaridagi o'zgarishlar ham rol o'ynashi mumkin. Shunga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik hali ham kitob o'qishni qadrlaydi va zavqlanadi, nashriyot sanoati esa rivojlanishda davom etmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kutubxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" PQ 3271-sonli qarori ham o'quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirish qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.^[1]

Bunda kutubxonachi, ota-onalar va o'qituvchilarning hamkorligi va ularning vazifalarini belgilab olishimiz zarur.

Har birimiz, qaysi kasb egasi bo'lmaylik, qaysi sohada ishlamaylik imkon va sharoitimizdan kelib chiqib, kitob bilan muayyan darajada muloqotda bo'lamiz.



Darhaqiqat, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuchdir. U insoniyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy-ma'rifiy olami, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi. Albatta, kitob bu – ziyo, uni tarqatuvchisi esa bu kutubxonachidir. Ular kutubxona ma'lumotlar bazasini tashkil qiladi. Odamlarga materiallar va resurslarni topishga yordam beradi. Ularning mas'uliyati ular ishlaydigan kutubxonaga qarab farq qilishi mumkin. Masalan, yirik kutubxonalarda kutubxonachilar odatda ma'muriyat, IT boshqaruvi yoki bolalar kutubxonasi kabi ma'lum bir sohaga ixtisoslashgan bo'ladi. Bunda biz jamoat va maktab kutubxona kutubxonachilariga katta ma'suliyat yuklagan holda maktab o'quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi va ota-onalar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda maqsadni belgilab olish zarur. Kutubxonachi buning uchun xafta kunlarini o'quvchilar sinfi va yoshiga doir qiziqarli viktorina hamda loyihalar bilan boyitadi. Ishlab chiqilgan rejali loyihalar ota-onalar va o'qituvchilar bilan hamkorlikda o'quv muassasalarida joriy qilinadi. Masalan, "Otam, onam, kitob, men: birgalikda – kitob oilasi" loyihasi oilada kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida, kutubxona va joylarda yoshlarga ota-onasi uchun kitob olishi tavsiya qilinadi yoki aksincha yoshi kattalar uchun farzandi va turmush o'rtog'iga kitob olishi tavsiya qilinadi. Kitob o'qishga ma'lum bir muddat kerak bo'lishi sababli bunday loyihalarni haftada bir marta o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Xaftaning boshqa kuniga kitob o'qish viktorinalarini tashkil qiladi va ularni rag'batlantirib boradi hamda xafta yakuni bo'yicha ota-onalar va o'qituvchilar ishtirokida faol o'quvchilarni yutuqli sovrinlar bilan mukofatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 21- dekabrda PQ-401-son qarori asosida 2024 yil davomida chora tadbirlar rejasi asosida oilalarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida "Kitobxonlik oiladan boshlanadi, kitobxon ona - kitobxon bola" g'oyasi va Kitobxon onalar kuni Oila va xotin –



qizlar qo`mitasi, Respublika Ma`naviyat va ma`rifat markazi, O`zbekiston Milliy kutubxonasi, O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, yoshlar siyosati va sport vazirligi bilan hamkorlikda har oyda O`zbekiston Milliy kutubxonasi va viloyat shahar, tuman axborot kutubxona markazlari va mahallalarida yuqori saviyada tashkil qilinib kelinmoqda.^[2]

Oilaviy kitobxonlik faoliyati Tarbiyaning barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o`rni nihoyatda kattadir. Shu boisdan, ota-onalar farzandlariga kitob o`qisa, bolalar kitobxon bo`lishadi. Ota-onaning ma`naviy darajasi, axloqiy qarashlari bevosita farzandga ham ko`chib o`tadi, farzandlar shaxsiyatida aks-sado beradi. Binobarin, kitobxonlik, badiiy adabiyotga muhabbat hamda inson ma`naviy tafakkurini tarbiyalaydi. Darhaqiqat, ulug` ma`rifatparvar Abdulla Avloniy aytganidek: “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.

O`zbek oilalarida kitobga muhabbat, kitobni asrab avaylab saqlash va kitobxonlik qadimiy an`analardan bo`lib, xalqimiz ma`naviy kamolotida muhim o`rin tutib kelayotir. Kitobxonlik –ma`naviy komillik asoslaridan sanaladi.^[3:165] Zero, kitobxonlik- mehnatdir, inson ma`naviyatini yuksaltiradigan, aqliy mehnat sifatida katta qunt va diqqatni, sabr va bardoshni talab etadi, inson shuurini mushohadaga va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantiradi, fikrni charxlaydi, teranlashtiradi. Tabiiyki , oilaviy kitobxonlikka tashabbus hamisha kattalar tarafida bo`ladi. Bunda bobolar va buvilar bolalarga ertaklar aytib berishi yoki ota – onalarning kitobxonligi ayricha ahamiyat kasb etadi. Rus adibi A.S. Pushkin iste`dodining kurtak ochishida buvisi Arina Radionovna nechog`lik katta rol o`ynagan bo`lsa, bolalik kunlarida, uyqusiz tunlarida buvisi so`ylab bergan ertaklar Hamid Olimjonda shoirlik iste`dodining uyg`onishida shu qadar katta rol o`ynaganini inkor etib bo`lmas haqiqatdir.^[3:174]



Ha, ota-bobolarimiz kitobni shu qadar ulug` muhabbat bilan o`qigan, asrab –avaylagan, unga chinakam ixlos qo`yib qo`ygan kitobdagi so`zni muqaddas bilib e`tiqodini, iymonini mustahkamlagan kitobning mo`jizaviy qudratiga ishonib amal qilib yashagan. Shu tariqa kitobsevarlik ota –bobolarimizning qon –qoniga singigan, savodi bor yoki yo`qligidan qat`iy nazar, kitobni qo`liga olgan zahoti uni ko`zlariga surtib tavof etgan.^[3:175] Shunday ekan kitob mutolaa madaniyatini shakllantirishda oila nafaqat muhim balki asosiy ildiz sifatida qarashimiz lozim.

Oilaviy kitobxonlik madaniyatiga ega bo`lish uchun quyidagi tavsiyalarni e`tiborga olish nazarda tutiladi:

Ular o`qishni xohlagan narsani tanlashiga imkon bering;

- Yoshga mos kitoblarni tanlang;

- Faqat yotishdan oldin emas, balki har kuni ularga kitob o`qib bering, shunda ularning kitob o`qish hayotning bir qismi ekanligiga munosabatini rivojlantirasiz;

- Ularni oldida ko`proq bosma ya`ni haqiqiy kitoblarni o`qing;

- Kitoblar har doim, hamma xonada mavjud bo`lsin. Badiiy, fantastik va hatto rasmi kitoblar;

- **SIZ O`QING!** Bir necha bo`sh daqiqalaringiz bo`lsa, birinchi variant sifatida o`zingizni telefon yoki televizor pultini ko`tarmaslikka majburlang. Buning o`rniga kitob yoki jurnalga murojaat qiling. Agar siz hech bo`lmaganda o`zingiz xohlagancha o`qimasangiz, ular buni ko`rishadi va siz qilgan boshqa hech narsa muhim emas.

- Doimiy ravishda kutubxonaga borib turing. Kitob aksiya va tanlovlarida ishtirok eting. Bolalar o`z kitoblarini tanlash uchun yetarlicha ulg`ayganlarida, ularga kutubxona kartasini oling va har hafta yangi kitob olish quvonchini his qilishlariga imkon bering. O`zingizga ham yangi kitob oling;^[5]



O'rta yoshli kitobxon farzand uchun esa unga tengdosh qahramonlar taqdiri aks etgan, hayotiy, xayoliy-fantastik voqealar tasvirlangan, ko'ngil kechinmalari jonlantirilgan asarlarni tavsiya qilinadi. Misol uchun Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", Hojiakbar Shayxovning "Rene jumbog'i", Jozef Redrayd Kiplingni "Maugli", Joan Roulingni "Garri Potter" Jonatan Sviftning "Gulliverining sayohatlari", Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" kabi sarguzasht kitoblar o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi hamda kitob mutolaasiga qiziqishi yanada ortib boradi.

Farzandlarning o'qish darajasi va tinglash darajasi boshqacha ekanligini hech qachon unutmasligimiz zarur. Ilg'or kitoblarni o'qiyotganimizda, hikoyalarga muhabbat uyg'otamiz, yangi lug'at bilan tanishamiz va bolalarni umrbod kitobxonlarga aylantiradigan motivatsiyani shakllantirib boramiz va oilada farzandlarimizda kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqish ortib boradi.

Har bir oilalarda kattami kichikmi shaxsiy kutubxonalar mavjud, bu hol albatta qoniqarli holat. Shaxsiy kutubxonalarni tashkil qilishda biz kattalar ota –onalar, bobo-buvilar yosh avlodga namuna sifatida oiladagi har bir farzandning tug'ilgan kunida yoki maktabda tanlovlarda erishgan yutuqlarida ularni rag'batlantirgan holda o'zlarining sevimli kitoblarini sovg'a qilishimiz kerak.

Shaxsiy kutubxonada o'zbek adabiyotimizning durdona asarlaridan Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Besh bolalai yigitcha", "Sariq devni o'limi", O'tkir Xoshimovning "Dunyoning ishlari", "Daftar hoshiyasidagi bitiklar", "Ikki eshik orasi", Abdulla Qodriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", Cho'lponning "Kecha va Kunduz", Abdulla Qahhorning "Sinchalak", Tohir Malikning "Shaytanat", "Tafakkur gulshani", Muhammad Yusuf, Xalima Xudoyberdiyeva, Zulfiya, Erkin Voxidov, Abdulla Oripov, To'ra Sulaymonlarning shery to'plamlari har bir o'zbek xanodonlarining shaxsiy kutubxonasining javonlaridan va ko'ngillaridan joy olgan sevimli adiblarimizning kitoblaridir.^[4:360]



Dunyodagi har qaysi iqtisodiy rivojlangan davlat borki, aholisi kitob mutolaasi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab turadi. Misol uchun, Mamlakatlar bo'yicha yiliga o'rtacha o'qiladigan kitoblar haqidagi ko'pchilik hisobotlar, o'qishga sarflangan vaqtni ko'rsatadi. Birinchi beshlikdan Hindiston, Tailand, Xitoy, Filippin va Misr joy olgan.^[6] Albatta, iqtisodiy o'sish uchun aholi savodxonligi muhim rol o'ynaydi va bu esa kitob mutolaasiga borib taqaladi. Davlatimiz tomonidan kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga doir bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda va buning uchun ota-onalar, kutubxonachilar va o'qituvchilar hamkorligi o'ta muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" PQ 3271-sonli qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 21- dekabrdagi PQ-401-son qarori
3. O.Safarov, M.Maxmudov, Oila ma'naviyati. Toshkent "MA'NAVIYAT" 2009, 248 b.
4. D.G'aniyeva. Ta'lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish boshqarish, "Yangi asr avlodi" Toshkent 2013 380 b.
5. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/average-books-read-per-year-by-country>
6. <https://www.educationworld.com/teachers/7-tips-encourage-your-students-read>



**JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY AND
SCIENTIFIC HORIZON (JASSH) VOLUME-1, ISSUE-5,
SERIES B (JUNY)**

TABLE OF CONTENTS

1	Hamroyeva Sabina Ismoil qizi ABDULLA QAHHOR HIKOYALARI TAHLILI	4-18
2	Дадабоева Мадина ЁШЛАРДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ	19-22
3	Soliyeva Kamola Rustamjon-qizi MEROS MUNOSABATLARIDAN KELIB CHIQAIDIGAN NIZOLARINING TURLARI VA ULARNING HUQUQIY TABIATI	23-35
4	Sulaymonova Shoira Riskulovna NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR UCHUN INKLYUZIV KUTUBXONA XIZMATLARINI YARATISH	36-44
5	Sulaymonova Shoira Riskulovna MAKTAB O‘QUVCHILARIDA MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA KUTUBXONACHI, OTA-ONA VA O‘QITUVCHILAR HAMKORLIGI	45-51
	OUTLINE	52